

## TALABALARNING MA'NAVYIY-AXLOQIY KOMPETENTLIGINI JADID PEDAGOGIKASI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8418058>

**Maqsudov Ulug'bek Qurbonovich**

*Farg'ona davlat universiteti pedagogika kafedrasida v.b. dotsenti, p.f.b.f.d(PhD)*

**Abdullayev Ro'zimuxammad Akramjon o'g'li**

*Farg'ona davlat universiteti 1-bosqich magistranti*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada talabalarning ma'naviy axloqiy kompetentligini turli vositalar qatori jadid pedagoglarining yorqin asarlari, ularning o'zlari yashagan davrda pedagogik jarayonni takomillashtirishdagi samarali ishlari, talabalarning kompetentligini jadid pedagogikasidagi ma'rifat, vatanga muhabbat tuyg'usi, ma'naviyat, ma'naviy axloqiy sifatlarni shakllantirish vositalarini qo'llash asosida shakllantirish asoslari tahlil qilingan.*

### **Kalit so'zlar**

*talabalar, ma'naviy-axloq, kompetentlik, metod, shakl, vosita, jadid pedagogikasi.*

### **Abstract**

*This article analyzes the basics of the formation of spiritual and moral competence of students based on the use of bright works of Jadid teachers among various means, their fruitful work on improving the pedagogical process during their existence, the use of means of formation in Jadid pedagogy of education, feelings of love for the Motherland, spirituality, spiritual and moral qualities.*

### **Key words**

*students, spiritual-morality, competence, method, form, tool, modern pedagogy.*

### **Аннотация**

*В данной статье анализируются основы формирования духовно-нравственной компетентности учащихся на основе использования среди различных средств ярких работ джадидских педагогов, их плодотворной работы по совершенствованию педагогического процесса в период своего существования, использование средств формирования в джадидской педагогике воспитания, чувства любви к Родине, духовности, духовно-нравственных качеств.*

### **Ключевые слова**

*студенты, духовно-нравственные, компетентность, метод, форма, инструмент, современная педагогика.*

Bugun dunyoda globallashuv jarayonida inson ongi va tafakkuri uchun jiddiy kurash kechayotgani ayni haqiqatdir. Talaba-yoshlarni globallashuv jarayonida o'z ongi va tafakkuri bilan mustaqil fikr yuritadigan, o'z xalqini va Vatanini himoya qila oladigan shaxs sifatida tarbiyalash ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunini tashkil etadi hamda talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy bilimlarga ega bo'lishini taqozo etadi.

Bu haqida davlatimiz rahbarining 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2020-yil 25-dekabrda "O'zbekiston yoshlari" forumi hamda Respublika Oliy Majlisiga murojaatnomasida davlatimiz rahbari 2020-yil 29-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Uchinchi Uyg'onish davri poydevorini yaratishga bel bog'lagan xalqimiz uchun ta'lim-tarbiya, odob-axloq, aql-zakovat, bilim va ma'naviyat naqadar beqiyos kuch va ma'naviy manba ekanligini ta'kidladi. Chunki ma'naviy-axloqiy fazilatlar azaldan beqiyos quvvat, baxt, tinchlik, bunyodkorlik, ahillik, ma'naviy poklanish mezon, qalbni yuksaltiruvchi ne'mat bo'lib kelgan. Chunki u millatni, xalqni, ya'ni xalqni komillikka yetaklovchi yuksak fazilatlar va axloqiy mezonlar asosida yashashga, nafs va g'aflat asiriga aylanib qolmaslikka, ezgulik yo'lida doimo hushyor bo'lishga chaqirgan.

Talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda jadidlarning ma'rifatparvarlik g'oyalari muhim o'rin tutadi. Jadidchilik aslida ma'rifatparvarlik harakatining ko'rinishidir. Shuning uchun biz bu o'rinda masala bayonini ma'rifat va ma'rifatparvarlik tushunchalari va uning ahamiyatini izohlashdan boshlashni lozim topdik.

Ma'rifatning lug'aviy ma'nosi bilish, tanish, bilim demakdir. Boshqacha aytganda ma'rifat bilmoq, kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonidir. Ma'rifat so'zining ko'pchilikdagi ma'nosi maorifdir. Ma'rifat atama sifatida - tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma'lumotlar majmuasini bildiradi. Ma'rifatli degani – bilimli, muayyan sohada ma'lumoti bor, demakdir. Fanlar chuqur va keng rivojlanib borayotgan hozirgi davrda bilim va ilmga intilgan har bir ki-shi, talaba, fan namoyondasi ilmning, ya'ni ma'rifatning ma'lum sohasinigina egallashga erisha oladi. Masalan, kimyoning ma'lum sohasini, xuddi shuningdek matematika, fizika, biologiya, meditsina va boshqalarning ham ma'lum yo'nalishlarini egallaydilar.

Ma'rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi, demak ma'rifat - bilim va madaniyatning qo'shma mazmuni bo'lib, maorif esa ana shu mazmunni yoyish quroli, vositasidir.

Ma'rifat asosan umumiy va o'rta maxsus bilim beruvchi maktab va o'quv yurtlarida tarqatiladi. Ma'rifat tushunchasi maorif tushunchasidan keng bo'lib bilim va madaniyatni yoyish va yuksaltirishning hamma turlari, shakllari va sohalarini o'z ichiga oladi.

Jamiyatda ma'rifat, ya'ni bilim ma'rifatparvarlar orqali yoyiladi. Ma'rifatparvar – ma'rifat uchun kurashuvchi; ilm, bilim chirog'inii yoquvchi; ma'rifat homiysi va tarafdori demakdir.

Insoniyatning bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga bir tarixiy davrdan ikkinchi bir tarixiy davrga o'tishi ma'rifatparvarlikdan boshlanadi. Zamonaning eng yetuk ongli, oq-qorani tanigan, fidoyisi, elim, yurtim deb yashovchi, uzoqni ko'zlovchi ma'naviyatli. kishilari ma'rifatparvarlik bilan shug'ullanadilar.

Ma'rifatparvarlar odatda davr uchun, jamiyatning, mamlakatning, xalqning buguni va kelajagi uchun muhim g'oyalarni ilgari suradilar, shu g'oyalarni amalga oshirish uchun kurash olib boradilar.

Ma'rifat ma'naviy qaramlik qo'rquv va hadikni bartaraf etadi, insonga beqiyos ilohiy qudrat, mislsiz salohiyat baxsh etadi Shuning uchun ozodlik uchun kurashchilar mamlakat, millat ozodligini xalqning ma'rifiy uyg'oqligida deb biladilar va ma'rifat uchun kurashadilar. Bizning xalqimiz azal-azaldan ma'rifatga intilib yashagan. Bu ulkadan dunyo ilmi rivojiga ulkan hissa qo'shgan allomalar yetishib chiqqan. Ular ham dunyoviy, ham diniy ilmlar sohasida dunyo ilmi ahlini hayratga solganlar. Bunga 1998 yilda Ahmad al Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi va hadis ilmi sultoni Imom al Buxoriy tavallu-dining 1225 yilligi keng nishonlanganligini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

O'tmishda ijod etgan allomalarimiz al Farobiy, al Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek va boshqalar nafaqat ilm chuqqilarini egallab qolmay, uni – ya'ni ma'rifatni keng targ'ib etganlar, shogirdlarni tarbiyalaganlar.

Turkiston ma'rifatchilik maktabi boy o'tmish va ulkan merosga ega. Maxmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxon, o'g'li, Abdulqodir Shakuriy, Ashurali Zohiriy, Saidrasul Saidaziziy, Ishokxon Ibrat va Ahmad Donishlar XIX asr. oxirlarida faoliyat boshlab, mamlakatni, xalqni milliy zulm va qoloqlikdan xalos etishning yagona yo'li ma'rifatda deb bildilar. Bu fidoyi zotlar mustabid tuzum va jaholatga ma'naviy ko'plik va zulm-zo'ravonlikka qarshi bor kuchlarga kurash olib bordilar.

Munavvarqori ta'lim-tarbiya ishlarini isloh qilmay, xalqning ongini oshirmay, madaniy saviyasini ko'tarmay jamiyatda katta o'zgarishlar qilish aslo mumkin emasligini tushunib yetadi.

Munavvarqorining millat taraqqiyoti uchun olib borgan g'oyalari tufayli sobiq zo'ravon Sho'rolar hukumati uni ta'qib ostiga oldi. 1931 yil 25 aprelda esa otib tashlandi.

Milliy uyg'onishga chorlovchi g'oyalarni ilgari surgan jadid harakatining yana bir yirik vakili Abdulla Avloniydir. U millatning ma'naviy inqirozda bo'lishini tanqid qildi, barchani savodli bo'lish, zamonaviy fan, madaniy yutuqlarni egallashga chaqirdi. Abdulla Avloniyning "Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidir" degan g'oyasi ma'rifatparvarlik jadidchilik harakatining dasturini tashkil etadi. U ma'rifatparvar safdoshlari singari mazlum Turkiston ahlini ilm-ma'rifat ziyosidan bahramand qilishda unitilmas xizmatlar ko'rsatdi. "Turkiy Guliston yoxud axloq" kitobida ma'rifat, ilm-fanning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni haqida qimmatli fikrlarni bayon qilgan. Allomaning qarashlarini o'rganish - butun o'zligimizga qaytish jarayoni kechayotgan bir paytda alohida ahamiyat kasb etadi. Biz shu o'rinda allomaning asaridan quyidagilarni qayd etishni lozim topdik "Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdir". Zeroki ilm bizga o'z aholimizni, harakatlarimizni oyna kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur, savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur. To'g'ri yo'lga rahnamolik qilib, dunyo va oxiratda mas'ul bo'lishimizga sabab bulur. Bizlarni ilm jaholat qorong'uligidan qutqarur. Madaniyat, insoniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur. Alloh taologa muhabbat va e'tiqodimizni orttirur... Alhosil, butun hayotimiz, salomatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog'liqdur".

Jadidchilarning qismati chor hukumati, Vaqtli hokimiyat va ayniqsa, sobiq Sho'rolar tuzumi davrida nihoyatda fojiali bo'ldi. Ularning ko'pchiligiga yuqorida bayon qilingan talablari uchun millatchi, "panturkist" degan tamg'a bosilib, qatag'on qilindi, jadidlar g'oyalari va harakatiga qora chiziq tortildi. Jadidchilikning tor-mor qilinishi turkiy millatlarning jahon miqyosida tanilishini yana bir asrga opqara surdi. Jadidchilik bir asr davomida avval kommunistik g'oyaning tazyiqida, keyinchalik esa iskanjasida bo'lib, to'la ravishda namoyon bo'la olmadi. Uning zaminlari shakllanishi tarzini o'rganishga intilganlar ham tazyiq ostiga olindi. Uni o'rganishga intilganlar ham ta'qib qilindi. Mustaqillik sharofati bilan Turkiston xalqlarining erki, mustaqilligi, milliy davlatchilik g'oyalari, ma'rifati uchun kurashgan vatanparvarlarning muborak nomlari

tiklandi, asarlari chop etildi. Jadidlarning g'oyalari o'lmas g'oyalar bo'lgani uchun ham mus-taqillik bilan birga hayotimizga qayta kirib keldi.

Ma'naviy-axloqiy bilimlarni egallagan talaba -yoshlarda tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik, halollik, mehnatsevarlik, kamtarlik, fidoyilik kabi fazilatlar shakllanadi. Bunday fazilatlarga ega bo'lgan yoshlar odob-axloq meyorlari talablarini ongli ravishda bajaradi, ma'naviy meros, urf-odat va an'analar kabi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlaydi.

Talabalarda ma'naviy-axloqiy kompetentsiyani rivojlantirishda milliy qadriyatlar va milliy tarbiya asoslaridan foydalanish yo'llari, ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari, oliy ta'lim tizimida ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish va bo'lajak mutaxassislarni axloqiy tarbiyalashdan iboratdir. Kadrlar tayyorlash muammosi, ayniqsa, ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ish tizimini samarali tashkil etish masalalari yuzasidan qator ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil qilinib, amalga oshirildi.

Talabalar va yoshlarning ma'naviy madaniyatini rivojlantirish shakllari va usullari (konferentsiya darslari; dars; amaliy dars; o'yin darsi; sayohat darslari; rolli o'yinlar darslari; o'quv faoliyati; ekskursiya; davra suhbatlari; kichik guruhlarda ishlash; ma'naviy madaniyatni shakllantirish usullari: muammoli vaziyat; qiyosiy-tushuntirish tahlili; asarlar ustidagi badiiy-ma'rifiy ishlar; ijodiy ish; kontseptual tahlil; mantiqiy tahlil; timsollar tahlili; ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni izohlash va o'rganish; mustaqil ish va boshqalar) tizim muhim o'rin tutadi.


Ma'naviy-axloqiy tarbiya metodikasini ishlab chiqishdagi roli.

Tahlillar va zamonaviy pedagogika asosida o'quvchilarning ijtimoiy faolligi va tashabbusi asosida ma'naviy-axloqiy kompetentsiyasini rivojlantirish ma'naviy-axloqiy bilim, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, ma'naviy faollik kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi.

Ma'naviy-axloqiy bilimlarni ma'naviy-axloqiy kompetensiyaning bir qismi sifatida shakllantirish natijasida o'quvchilarda vatanparvarlik, baxt-saodat, or-nomus, muhabbat, ezgulik, vijdon, burch, adolat, e'tiqod kabi bir qator axloqiy qadriyatlar shakllanadi. Ma'naviy-axloqiy bilimlarni egallagan o'quvchilarda tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik, halollik, mehnatsevarlik, kamtarlik, fidoyilik kabi fazilatlar shakllana boshlaydi.

Bunday fazilatlarga ega bo'lgan yoshlar ma'naviy-axloqiy meyorlar talablarini ongli ravishda bajaradi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ya'ni ma'naviy meros, urf-odat va an'analarni hurmat qiladi.





Biroq, axloqiy va axloqiy me'yorlar haqida bilimga ega bo'lish, ularni tushunish va yaxshi fazilatlarni rivojlantirish yoshlarni ma'naviy va axloqiy jihatdan tarbiyalaydi, degani emas. Insoniylik fazilatlari hayotiy tajribalarda aks etsa va munosabatlarga kirishayotgan shaxsning faoliyatida aniq namoyon bo'lsa, bu uning tarbiya darajasini belgilaydi. Jamiyat taraqqiyoti uchun eng avvalo, axloqiy-axloqiy barkamol, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash bilan birga, yoshlarning bilim saviyasini yuksaltirishga e'tibor qaratish zarur. Zero, jamiyat taraqqiyotini axloqiy bilimli shaxslarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalarini to'g'ri qo'ya bilish, ish mazmunini belgilab olish, maqsadga erishish uchun tizimli yondashuvni tashkil etish zarur. Bu vazifalarni amalga oshirish va ta'lim muassasalaridan shaxsni ma'naviy-axloqiy kompetentligi shakllantirish tizimi quyidagilarni tashkil etishi tavsiya qilinadi:

-ta'lim muassasalarida izchillik asosida olib borilayotgan ta'lim va tarbiya natijasida ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan kasbiy malakali mutaxassislarni tayyorlash.

- uzluksiz ta'limning har bir bosqichida ma'naviy-axloqiy tarbiya maqsadiga erishish yo'llarini izlash;

- ta'lim jarayonida turli tarbiya vositalari orqali yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda jadid adabiyotidan keng foydalanishni tahlil qilish;

- ma'naviy-axloqiy tarbiyada zamonaviy axborot texnologiyalari va zamonaviy pedagogik uslublar bilan uyg'unlikda shaxsga yo'naltirilgan usul va vositalarni tashkil etishni yo'lga qo'yish;

- yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiya darajasini aniqlash maqsadida so'rovnomalar o'tkazish va natijalarini qayd etish;

- ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega yoshlarni barkamol ijtimoiy faol mutaxassislar etib tayyorlashga erishish.

Talaba-yoshlarda ijtimoiy-pedagogik faollikni, tashabbuskorlik va faollikni tashkil etishda ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlarini o'qitish jarayonida individual yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari va hamkorlikda ta'limni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Ushbu ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchida ma'naviy-axloqiy kompetensiyani rivojlantirishga erishish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy pedagogika orqali o'quvchilarning axloqiy-axloqiy kompetensiyasini shakllantirishning mazmuni, shakli, usul va vositalarini izchil takomillashtirib borish, yoshlarning ma'naviy-axloqiy toifalar, meyorlar, qadriyatlar tizimi haqidagi bilimlarni shakllantirish. ijtimoiy munosabatlar, ulardan amaliy faoliyatda foydalanish malakalarini oshirish muhim ahamiyatga ega. Yoshlarning ma'naviy-axloqiy barkamolligini rivojlantirishda millatimiz tarixi va ma'naviyatining ildizlariga e'tibor qaratish zarur. ma'naviyatini yuksaltirish orqali ularning adabiy merosini keng targ'ib qilish, umumli foydalanish va tahlil qilish, ya'ni pedagogik yondashuvi, adabiy merosi, qo'llagan didaktikasi, uslub, vosita va mahorati hamda chinakam ishtiyoq va yetakchilik kabi insoniy fazilatlari misol bo'la oladi. o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy barkamollikni yanada rivojlantirish va singdirish vatanparvar, aqliy, axloqiy, ma'naviy va jismonan sog'lom avlodni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz (1-jild). – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 592 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 48 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907 qarori // <https://lex.uz/docs/-3864155>.

6. Ilm olish sirlari. Imom Zarnujiy Movaraunnahr Toshkent-2004[4]6. Farsaxonova D.R. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasi // Ta'lim, fan va innovatsiya. 2019, – №1. – B. 77-81.

7. Azarov Yu.P. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1991. – 67 b.

8. Kurbanovich, M. U. (2020). Pedagogical tendencies of the development of social

activity skills of primary school pupils through the use of folklore. ACADEMICIA:

An International Multidisciplinary Research Journal, 10(5), 562-566.

9. Maqsudov, U. B. Q., & Rahmonova, R. Z. (2022). TA'LIM JARAYONIDA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARINING ISTIQBOLLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(12), 1166-1173.

10. Qurbonovich, M. U. B., & Akramjon o'g, A. R. Z. (2023, June). JADID PEDAGOGIKASI VOSITASIDA TALABALARNING MA'NAVY-AXLOQIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. In Proceedings of International Educators Conference (Vol. 2, No. 6, pp. 129-135).

11. Maksudov, U. K. (2020). CHARACTERISTIC OF THE PROCESS OF DEVELOPMENT OF SOCIAL ACTIVITY SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH FOLKLORE. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(7), 407-412.

12. Maksudov, U. K. (2020). ISSUES OF NATIONAL VALUES AND SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF POSITIVE

PSYCHOLOGY. In Психологическое здоровье населения как важный фактор

обеспечения процветания общества (pp. 394-396).

13. Maksudov, U. K. (2022). Development of Social Activity of Primary School Students through Folk Oral Creativity. International Journal of Innovative



Analyses and Emerging Technology, 2(5), 54-57.

14. Maqsudov, U. B. Q., & Qosimova, G. E. Q. (2022). TALABALARDA MEDIA SAVODXONLIKNI OSHIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 988-995.

15. Maqsudov, U. B. Q., Eraliyev, Y. L., & Qosimova, G. (2022). TA'LIMDA MULTIMEDIALI VOSITALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 973-980.

16. Maqsudov, U., & Eraliyev, Y. (2022). PEDAGOGIKA FANLARINI O'QITISHDA MULTIMEDIALI VOSITALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMYI JURNALI*, 2(12), 68-73

17. Qurbonovich, M. U. B., & Zuhriddinovna, R. R. (2022). TA'LIM JARAYONIDA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARINING ISTIQBOLLARI.

18. Qurbonovich, Maqsudov Ulug'bek. "TALABALARDA MEDIA SAVODXONLIKNI OSHIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI." (2022).

19. Maksudov, U. K. (2023). SCIENTIFIC-THEORETICAL ANALYSIS OF THE PROMOTION OF STUDENT-YOUTH INITIATIVES BASED ON THE GENDER APPROACH. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(3), 688-693.

Karimova, M. O., & Sharipova, D. A. (2023). BO 'LAJAK MUTAXASSISLARNI INNOVATSION YONDOSHUV ASOSIDA PEDAGOGIK AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1), 18-26.

20. Каримова, М., & Тойчиева, Р. (2022). Bolalarni oilada tarbiyalash haqida o'rtasiyo mutafakkirlarining falsafiy-etik, ijtimoiy-pedagogik qarashlari. *Общество и инновации*, 3(5), 139-145.

21. Otajonovna, K. M., & Mamura, O. (2022). ILG 'OR AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIMNI TAKOMILLASHTIRISH. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMYI JURNALI, 2(11), 7-12.

22. Karimova M. O., PEDAGOGICAL BASES OF TRAINING OF FUTURE TEACHERS, "O'zbekiston Milliy universitetining ilm-fan rivoji va jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rn i" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2023 yil, 12 may

23. Rafikova, D., Karimova, M., Yuldasheva, N., Oltmisheva, N., Rustamova, N., & Sodikov, U. (2023, June). Preparing to innovative activity: Problem solving. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.